











www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz.uz\_news

2026-yil 21-fevral, 36-son

# TERMIZIYLAR BEDOR YOTGAN QO‘RG‘ONIM, VATAN!

## O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, O‘zbekiston xalq shoiri, senator Sirojiddin SAYYID bilan “Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetolari bosh muharriri Salim DONIYOROV suhbatlari

### Boshlanishi 1-betda

— Sirojiddin aka, o‘zingizga yaxshi ma‘lum, so‘nggi yillarda mamlakatimizda ijodkorlarga juda katta imkoniyatlar eshigi ochildi. Ayniqsa, keyingi qariyb o‘n yilda yaratilgan bunday sharoitlarni tarixiy va olamshumul o‘zgarishlar deb atash mumkin. Davlatimiz rahbari ijodkorlar bilan uchrashuvlarda ham adiblarimizga alohida e‘tibor qaratilishini, buyuk tariximizni chuqur o‘rganish bilan birga yangi O‘zbekistondagi islohotlar mohiyatini xalqimizga keng yoyishda ijodkorlarning o‘rni beqiyos ekanini ta’kidlagan edi. Keling, suhbatimizni ana shu tarixiy jarayondan boshlasak.

— Adabiyot, Yozuvchilar uyushmasi va jamiyatimizda kechayotgan keng ko‘lamli islohotlar haqida gapirganda, albatta, ushbu yangilanishlarning, bu yangi zamon binosining bosh me‘mori bo‘lgan Prezidentimizning bor shiddati, ezuq maqsad-muddaolari va ulug‘ niyati ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Davlatimiz rahbari faoliyatini boshlagan ilk kunlardanqoq, birinchi navbatda, diqqat-e‘tiborini adabiyotga qaratdi. Birgina misol: hozir biz o‘tirib, suhbatlashayotgan mana shu muhtasham bino yaqin o‘tmishda yo‘q edi.

Yetti-sakkiz yil oldingi holatni eslasak. O‘sha qahraton, rutubatli kunlarda Yozuvchilar uyushmasi poytaxtdagi eski binolardan birida ijara turardi va hammamiz turli qavatlarga tarqalib ketgan edik.

Birovning qosh-qovog‘iga qarab, boshqa birovdan xijolat tortib ishlardik. Ulug‘ ustozlar kelib ketardi... Xullas, o‘sha paytdagi noquvayliklarni aytaversak, gap cho‘zilib ketadi.

Shunday oqshomlarning birida davlatimiz rahbari ijodkorlarni chaqirayotgani, zudlik bilan Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog‘ga o‘planishimiz haqida xabar keldi. Qish kirib kelayotgan kunlar edi. Hali qurilish boshlanmagan, yon-atrofi xarob holatda, kattakan va omonat yelim chodir ichida yig‘ildik. Aynan o‘sha yerda “Adiblar xiyoboni” g‘oyasi o‘rtaga tashlandi. “Shu Milliy bog‘ ichida adabiyotimiz namoyandalari xotirasiga atab Adiblar xiyoboni bunyod etsak, qolaversa, Yozuvchilar uyushmasiga ham shu yerda muhtasham bir qarorgoh qurib bersam, nima deysizlar?” degan savol berildi.

Xuddi shu payt osmondan pag‘a-pag‘a laylakqor yog‘a boshladi. Birinchi so‘z menga berilganida “Muhtaram Prezident, eskilardan, momolarmizdan qolgan bir gap bor: ezuq niyat qilinganda qor yoki yomg‘ir yog‘sa, demak, bu niyat ijobat bo‘ladi. Hozir osmonu falaklar ham Sizning bu ulug‘ niyatlarinigizni tasdiqlab, qo‘llab-quvvatlab turibdi!” deyildi.

Esingizda bo‘lsa, bir muddat to‘xtab qolgan yosh ijodkorlarning Zomin seminarlari ham aynan shu pallada qayta tiklandi. Bu seminarning dastlabki tashabbuskori ham, o‘z vaqtida viloyatga rahbarlik qilgan paytlarida Prezidentimiz bo‘lganini hamma yaxshi biladi.

Mazkur anjuman yosh ijodkorlar orasidagi katta qiziqishni, yoshlikka xos surur va orzu-umidlarni o‘zida mujassam etgan holda qayta tiklandi. Mana, bugunga kelib, ushbu anjuman har yili muntazam o‘tkazib kelimoqda.

Ustozlarimizning bir hikmati bor: “Oltin kondan faqat oltin chiqadi”. Yoshlar bizning oltin fondimizdir. Ana shunday oltinlarimizni ulg‘aytirib, tarbiyalab, kamolga yetkazmoq bizning insoniy burchimiz.

Agar tashqaridan qarasangiz, bu majmualar juda tez va oson bunyod etilgandek tuyulishi mumkin. Ba‘zilar bunday shiddatli o‘zgarishlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lyapti deb o‘ylar balki. Lekin bularning ortida katta tafakkur, tinimsiz mehnat va kelajakni o‘ylab qilingan orzu-umidlari yotibdi. Yozuvchilar uyushmasining muhtasham binosini va Adiblar xiyobonini kelajakni ko‘zlab qurilgan buyuk me‘moriy majmua deb bilaman. Ular o‘zaro uyg‘unlashib ketgan yaxlit ansamblni tashkil etadi.



Eng baland ayvonda esa Prezidentimiz tashabbusi bilan buyuk bobomiz Hazrat Alisher Navoiyning haykali salobat to‘kib turibdi.

Chet eldan kelgan yozuvchi va shoirlar, turli mamlakatlarning Yozuvchilar uyushmasi rahbarlari bu maskanni ko‘rib, hayratda qolmoqda. Ular “Adabiyotga e‘tibor mana shunday bo‘lishi kerak, biz havasdamiz va hayratdamiz!” deb hurmat bajo keltirib ketyapti.



— Haqiqatan, shunday, Sirojiddin aka. O‘zimiz ham xorijdan kelgan mehmonlar, adiblar bilan uchrashib suhbatlashganimizda, ko‘pchilik o‘z hayratini yashirmaydi. O‘zbekistonda shoir va ijodkorlarga shunchalik katta sharoitlar yaratib berilganidan ular lol qolganini aytadi. Shu savolning mantiqiy davomi sifatida so‘ramoqchi edim: biz hozir suhbatlashib turgan Yozuvchilar uyushmasining yangi binosi, yonimizdagi muhtasham va ko‘rkam Adiblar xiyoboni, Do‘rmon, Zomin va Parkent ijod uylari, shuningdek, adiblarimizga berilayotgan uy-joylardan tashqari, ijodkorlar uchun yana qanday qo‘shimcha sharoitlar yaratilmoqda?

— Bu xayrli loyihalar haqidagi suhbatlar ilk bor boshlanganida ustozlarimiz va boshqa ijodkorlar ham qatnashgan edi. Bunyodkorlik ko‘lami shunchalik keng bo‘lishiga va bunday yuqori sur‘atda amalga oshirilishiga kimdir ishongan, kimdir esa ishonmagan o‘shanda. Lekin aytilgan niyat juda ulug‘ edi: biz yorug‘ jahonga ikki buyuk Uyg‘onish davrini tuhfa etgan millatimiz. Shunchalik ulug‘ ajdodlarimiz borligidan haqli ravishda g‘ururlanamiz, ammo bugun faqat faxrlanishning o‘zi bilangina ism bilmaydigan, shiddatli zamonlarga keldik. Buyuk allomalar, muhaddislar, sohibqironlarni dunyoga keltirgan, ustozlarimiz e‘tirof etganidek, qalami bilan butun dunyoni egallagan buyuk mutafakkirlarni bergan xalq shunchaki tarix sahifalarida qolib ketmasligi kerak. Bu buyuklik qonimizda bor, tomirlarimizda oqmoqda. Biz ana shu qonni, millat qalбини uyg‘otishga safarbar etilganmiz.

Charxi falak to aylanar ekan, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Termiziy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur hazratlari, qolaversa, qatag‘on yillarida yoki undan keyingi sho‘ro zamonida yashab o‘tgan ulug‘ ustozlarimiz aynan o‘zimizning oltin konimizdan chiqqan bebaho ma‘danlardir. Bunday ulug‘ adabiyotni yaratgan xalqning kelajagi ham, albatta, shunga munosib bo‘ladi.

Mana, davlatimiz rahbari tomonidan o‘shanda ilgari surilgan “Maqsadni, niyatni ulug‘ va baland oilaylik” degan ulug‘vor g‘oyalarning ro‘yobini bugun o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rib turibmiz. Millatning millat ekanini, xalqning xalqligini uning adabiyoti ham namoyon etadigan zamonlar keldi.

— Bugungi kun — yangi texnologiyalar hayotimizga shiddat bilan kirib kelayotgan davr.

va yanada yuksaltirish borasida qanday yumushlarni bajarishimiz zarur?

— Ulug‘larimizning bir buyuk hikmati bor: ezgulikni yemirib tashlaydigan har qanday taraqqiyot yovuzlikdir. Demak, taraqqiyot faqat ezgulikni xizmat qilsagina, vatan va xalq chindan taraqqiy topadi, farovonlikka erishadi.

Yaqinda bir maktabdagi uchrashuvda ishtirokchilarga qaratga “Navoiy bobomizning kompyuteri bo‘lganmi?” degan savolni berdik. Bilasiz, hozirgi yoshlar hayotini zamonaviy telefonlarisiz, gadjetlarisiz umuman tasavvur qila olmaydi. Bu savolni eshitib, ular hayron qoldi. Men ularga hazilomuz “Navoiy bobomizning zamonaviy monoblok kompyuteri bo‘lgan”, dedim.

Gap shundaki, yoshlar Navoiy bobomizni asosan keksalik davri aks etgan suratlari orqali tasavvur qiladi. Hammamiz maktabda o‘qiganmiz: bobomizning hali bolaligidayoq yozgan ikki misrasi davming yoshlar shoirlari tomonidan qanchalar yuksak baholangan! Yoki Sharafuddin Ali Yazdiydek buyuk alloma yosh Alisher bilan savol-javob qilib, uning ilm olgan maktablari, mutolaa qilgan kitoblari haqida surishtirgani va kelgusida bu ziyarak, zehnil boladan ulug‘ inson yetishib chiqishini bashorat qilgani tarixdan ma‘lum.

Xullas, o‘quvchilar mendan “Navoiyda kompyuter bo‘lganini qanday isbotlaysiz?” deb so‘raganida, ularga bobomizning “Farhod va Shirin” dostonini misol qilib keltirdim. Unda “oynai jahon” (sehrli oyna) haqida so‘z boradi. Farhod sehrli oyna orqali uzoq Armanistondagi go‘zal Shirinni ko‘rish va unga g‘oyibona oshiq bo‘lishi tasvirlangan. Axir bu hozirgi videoaloqa yoki internetning bashorati emasmi? Bu bugungi mo‘jizaviy tulkarni necha asrlar oldindan ko‘ra bilish, ulug‘ tafakkur parvoz emasmiz!

Navoiy bobomizning bunday mazmundagi fikrlari bor: buyuklar yozgan kitoblarni qancha ko‘p o‘qisangiz, siz ham shunchalik buyuklashib boraversiz. Biz bobomizning buyuk asarlar yozgani haqida ko‘p gapiramiz, ammo u kishi o‘zidan avval o‘tgan ulug‘lar ijodini juda chuqur va mukammal o‘rganganini ham esdan chiqarmaslik kerak. Masalan, Nizomiy Ganjaviy haqida “Emas oson bu maydon ichra turmoq, Nizomiy panjasiga panja urmoq”, deya bejiz yozmagan.

Hazrat Navoiyga ilhom bergan, u zotning ijodini jahonshumul darajada yuksaltirgan asosiy sabablardan biri Amir Xusrav Dehlaviy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy va boshqa mutafakkirlarning asarlarini tinimsiz mutolaa qilganidir. Shu bois, bugun Prezidentimiz kitobxonlik masalasiga alohida e‘tibor qaratib, millatni, xususani, yoshlarni kitobxon va ziyoli avlod etib tarbiyalash lozimligini doimo ta’kidlab kelmog‘da. Bu borada ko‘plab chora-tadbirlar, maxsus dasturlar va rejalar qabul qilinaotgani, ilm-fan va ta’lim masalasiga shunchalik katta kuch hamda mablag‘ safarbar etilayotganining asosiy bois va tub mohiyati ham aslida shudir.

— Bugun biz Uchinchi Rennessans poydevorini qurish va uni yanada mustahkamlash yo‘lida izchil harakat qilmoqdamiz. Mana shunday muhim tarixiy jarayonda ijod ahlining o‘rni hamda mas‘uliyati nimalardan iborat? Ayniqsa, bugungi yosh ijodkorlar ushbu ezuq maqsadlarni ro‘yobga chiqarishda qay darajada faol ishtirok etishi lozim deb bilasiz?

— Shu o‘rinda ma‘rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitrat domlarning “Bu dunyo kurash maydonidir” degan hikmatli so‘zlari yodga ushadi. Prezidentimiz ham bu teran fikrni turli uchrashuvlarda ko‘p bora ta’kidlab keladi. Demak, hayotning o‘zi ham, ijod ham aslida katta bir kurash maydonidir. Shunday ekan, yosh ijodkorlar masalasiga to‘xtalar ekanmiz, eng avvalo, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ma‘lumki, Respublika yosh ijodkorlari seminar kengashi aynan davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan yo‘lga qo‘yilgan edi. O‘z vaqtida Prezidentimiz ustoz Abdulla Oripovga Zominda

yosh ijodkorlar anjumanini o‘tkazish taklifini bildirganida Abdulla aka “Hemirimiz yo‘q bo‘lsa, nomimiz ulug‘, supramiz quruq bo‘lsa, buni qanday tashkillashtiramiz?” degan ekan. Shunda davlatimiz rahbari “Siz menga iste‘dodlarni yig‘ib bering, qolgan barchasini o‘z zimmaga olaman”, degan qat‘iy ohangda. Mana, ko‘rib turganingizdek, shu birgina e‘tibor tufayli bugun Zomin yosh ijodkorlar seminari haqiqiy ma‘noda minglab iste‘dodlar “ustaxonasi” vazifasini o‘tamoqda.

Shuningdek, bu yil Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm vohasida ham “Aqchako‘l ilhomlari” respublika yosh ijodkorlar seminari qayta tiklandi. Bu tashabbuslarning barchasi Prezidentimizning bevosita e‘tibori va doimiy qo‘llab-quvvatlovi samarasidir.

Ustozlarimizdan qolgan yana bir hikmat bor: buyuk zavqu shavq bilan ijod olamiga kirib kelgan yosh iste‘dod egasiga, toki uning ikkinchi yoki uchinchi kitobi nashr etilguniga qadar, albatta, yordam berish kerak. Agar uchinchi kitobidan keyin ham undagi ijodga ishtiyoq, mehnatsevarlik va hayotga muhabbat baland bo‘lsa, keyin u, shubhasiz, o‘z yo‘lini topib ketadi.

Bugun adabiyotga qaratilayotgan bunday yuksak e‘tibor xalqaro miqyosda ham keng e‘tirof etilmoqda. Ko‘plab xorijlik mehmonlar yurtimizdagi adabiy muhitda yuz berayotgan ijobiy o‘zgarishlarni alohida qayd etmoqda. Yaqindagina Qirg‘iziston, Tojikiston va Koreya Respublikasidan kelgan ijodkorlar bilan qator uchrashuvlar o‘tkazildi, Rossiya bilan hamkorlikda o‘zbek she‘riyati antologiyasining uch jildi nashr etildi. Shuningdek, mehnatkash tarjimonlarimiz ham munosib rag‘batlantirilib, davlat mukofotlariga loyiq ko‘rildi.

Har yili 15-20 yosh ijodkorining, ayniqsa, Zomin seminaridan muvaffaqiyatli o‘tgan umidli yoshlarning birinchi kitobi navbatsiz va katta addada chop etilmoqda. Ilgari biror kitobning ming nusxada chiqishi ham katta gap, katta voqea hisoblangan bo‘lsa, bugun yosh ijodkorlarning kitobi 5000 — 20 ming nusxada nashr etilmoqda.

Joylarda o‘tkazilayotgan “Vatan manzumasi” nomli teatrlashtirilgan she‘riyat kechalari ham keng jamoatchilik, ayniqsa, yoshlar tafakkurida keng aks sado bermoqda. “Ma‘rifat karvonlari” kabi ma‘naviy tadbirlar ham barchaga ma‘qul. Bunday ma‘naviy loyihalarni yanada kuchaytirishimiz zarur. Ularning aks samarasi, albatta, vaqt mezonini baland baholandi, biroq bugunning o‘zidayoq ular jamiyatimizdagi ijodiy muhiatga yangicha jon bag‘ishlayotgani yaqqol sezilmoqda.

To‘g‘ri, har qanday iste‘dodni ham bir kunning o‘zidayoq buyuklik darajasiga ko‘tarib bo‘lmaydi yoki hech kimni darhol daho yozuvchi deb e‘lon qilishning imkoni yo‘q. Ammo shunchaki ko‘llab-quvvatlashning o‘ziyoq ijodkorga ulkan ma‘naviy turtki beradi. Ko‘plab yosh ijodkorlarimiz ilk kitobi nashr etilgach, ijodiy yo‘lini, maqsad va muddosini aniq belgilab olayotganiga guvoh bo‘lmoqdamiz. E‘tiborlisi, biz bugun faqat kitob chop etish bilan cheklanib qolmayapmiz, mualliflarning ishritorida taqdimot marosimlarini tashkil qilaypmiz, ularga ustozlarni taklif etaypmiz.

Eng muhimi, mualliflik huquqi va qalam haqi masalasiga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. Yosh ijodkorga qalam haqini chiroyli xatjildga solib, katta hurmat bilan topshirish shunchaki moddiy rag‘bat emas, balki ijodkorning ko‘z nuri va qalb mehnatining yuksak qadrlanishidir.

O‘tmishni eslaganda, beixtiyor o‘zimizning boshimdan kechirganlarim bilan qiyoslayman. Chunki men ilk kitobimni chiqarish uchun nashriyotlar ostonasida oylab sarg‘ayganman. “Ana chiqadi, mana chiqadi!” deb umid qilib, bir yarim-ikki yil deganda to‘rg‘a tejab-tergab iqtisod qilgan qog‘ozlar hisobiga chiqqan edi birinchi to‘plamim. Bugun bu holatlarni yosh avlodga gapirib bersangiz, kulgisi qistaydi. “Nahotki, shunchalik qiyin bo‘lgan?” deb hayratlanadi.

Shu bois, hamma joyda ko‘p-ko‘p ta’kidlayman: ijod uchun shuncha sharoit yaratilmoqdamiz, demak, uning qadriga yetmoq

kerak! Buning shukronasiga atab millat yuzini yorug‘ qiladigan go‘zal asarlar bitish burchimiz. Quvonarlisi, bugun saviyali kitoblar soni oshdi, yaxshi-yaxshi romanlar yozilmoqda. Biz yosh ijodkorlardan bundan-da kattaroq natijalar, yuksak asarlar kutib qolamiz.

Ustozimiz, O‘zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov kitoblariga yozib bergan dastxatlarida bunday o‘tli so‘zlar bor edi: “Ijodning yulduzli onlari hamisha sizga hamroh bo‘lsin!”. Qarang, qanday go‘zal va teran tilak. “Yulduzli onlar” — bu tunning qop-qorong‘i yarmida, hamma uxlayotgan paytda uyg‘oq bo‘lish deganidir. Tunning qog‘ yarmida dunyodan uzilib she‘r bitish saodatini, masalan, men boshqa hech qanday hissiyotga almashgim kelmaydi. Chunki bu — qalb mehnatining eng oliy shodligi. Ana shu pokiza tuyg‘u barhayot ekan, haqiqiy iste‘dod ham, asl adabiyot ham mangu yashaydi.

— Xalqaro hamkorlik haqida gapirib o‘tdingiz. Ozarbayjon, Turkiya va boshqa mamlakatlardan ijodkorlarning O‘zbekistonga tashrifi, shuningdek, o‘zimizning ijodkorlarning xorijiy davlatlarga safarini uyushtirish borasida uyushma sermashul ishlamoqda. Aytganchi, 2025-yilda xalqaro hamkorlik bo‘yicha uyushmaning faoliyati qanchalik shiddatli va samarali kechdi?

Ota-bobolarimiz ta‘rifi bilan aytganda, 2025-yil ko‘z yumib ochguncha o‘tib ketdi. Vaqt burchalik tez o‘tgandek tuyulishining asosiy sababi o‘tgan yilning o‘ta shiddatli davr bo‘lganidir. Shu bilan birga, u yirik islohotlar va tarixiy voqealarga juda boy bo‘ldi. Prezidentimizning bunday shiddatli va tarixiy voqealarga boy faoliyati barchamizga chinakam o‘nak bo‘ladi.

Birgina misol: mana, kuni kecha davlatimiz rahbarining “Vatan va xalq qatibda o‘ylar” kitobi qo‘lmizga tegdi. Ushbu kitobda biz faoliyatimizda, xususan, xalqaro hamkorlikni tashkil etishda bevosita ko‘llashimiz mumkin bo‘lgan ko‘plab boy tajriba va yo‘nalishlar mavjud. Bugun xalqaro aloqalar borasida Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti (TURKSOY) hamda unga a‘zo davlatlar bilan hamkorlikda juda katta loyihalarni amalga oshirishni rejalashtirganmiz.

Mana, yaqindagina Anqaradan maxsus taklif tushdi. Biz Hazrat Alisher Navoiy tavalludiga bag‘ishlab Turkiyada o‘tkazilgan madaniy

adabiyot, xoh madaniyat yoki iqtisodiyot sohasi bo‘lsin, davlatimizga har tomonlama katta manfaat keltiradi. Masalan, AQSH Prezidentlari tashabbusi bilan ta‘sis etilgan va O‘zbekiston ta‘sischi mamlakatlardan biri sifatida taklif qilingan, G‘azo sektorini qayta tiklashni maqsad qilgan Tinchlik kengashining birinchi yig‘ilishida ham Prezidentimiz munosib ishtirok etib qaytdi. Bu ham O‘zbekistonning xalqaro siyosiy maydondagi o‘rni va nufuzi tobora mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. Bunday global miqyosdagi ezuq tashabbuslarni davlatimiz rahbari, Yangi O‘zbekiston siyosati doimo qo‘llab-quvvatlaydi. Zero, dunyo miqyosida barqaror tinchlikni saqlab qolish faqat bitta davlat yoki bitta Prezidentning shu y-harakatiga bog‘liq emas. Ammo shuni unutmaslik kerak: faqat tinchlik barqaror bo‘lgan joydagina chinakam taraqqiyot va rivojlanish bo‘ladi.

Nasib etsa, kelgusida AQSH bilan bevosita adabiyot yo‘nalishida ham keng hamkorlikni yo‘lga qo‘yish niyatimiz bor. Ma‘lumki, Amerika adabiyoti dunyoning eng yirik adabiy merosiga ega bo‘lib, Uolt Uittman, Jek London, Mark Tven, Uilyam Folkner, Ernest Xeminguey singari jahonga mashhur ulug‘ ijodkorlarni bizning o‘quvchilarimiz yaxshi bilishadi.

— Yaqinda Prezidentimizning “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”gi muhim farmoni qabul qilindi. Aytganchi, mana shu tarixiy hujjatdan kelib chiqqan holda, bugun Yozuvchilar uyushmasi zimmasiga qanday dolzarb vazifalar yuklanmoqda?

— Yozuvchilar uyushmasiga har kuni o‘nlab xatlar, murojaatlar kelib tushadi. Ularning aksariyati bevosita mahallalar va maktablardan yo‘llangan bo‘ladi. Hozir mahallalarimizda juda ajoiyb kitob do‘konlari va zamonaviy kutubxonalar tashkil etilmoqda. Bu maskanlarda mahalla va maktab ahli mutolaa qilish imkoniyatiga ega. Murojaatlarning asosiy qismi aynan mana shu kutubxonalar fondini yangi kitoblar bilan to‘ldirish haqida. Biz ular bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqa o‘rnatib, ushbu maskanlar fondiga o‘zbek adabiyotining eng nodir durdonalarini muntazam yetkazib beryapmiz.



tadbirlar va nufuzli konferensiyalarda qatnashdik. Buyuk bobomizning u yerda o‘rnatilgan haykali poyiga gulchambar qo‘ydik. So‘ng 4 milliondan ortiq kitob fondiga ega bo‘lgan Turkiya milliy kutubxonasida bo‘lib, u yerdagi o‘zbek adabiyoti bo‘limini ko‘zdan kechirdik. Ushbu kutubxona ochilishida davlatimiz rahbari tomonidan fondga tuhfa qilingan o‘zbek adabiyoti durdonalarini, qolaversa, qarodosh xalqning o‘zbek adabiyotiga cheksiz qiziqishi va yuksak hurmatini ko‘rib, qalbmiz faxr-iftixorga to‘ldi. Shuningdek, Turkiya Yozarlar birligi (Yozuvchilar uyushmasi) va Anqara ijtimoiy fanlar universitetida mahalliy adiblar, shoirlar hamda soha mas‘ullari bilan uchrashuvlar o‘tkazdik. Natijada kelgusi yillarda hamkorlikda tashkil etiladigan yangi loyiha va tashabbuslar bo‘yicha muhim kelishuv hamda shartnomalar imzolandi.

Ayni shu kecha-kunduzda Gurjiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan xalqaro adabiyot festivaliga taklifnoma oldik. Bundan tashqari, yil davomida Kashmir xalqaro adabiyot festivalida va Ozarbayjonda o‘tkaziladigan kitob taqdimotlariga qatnashish bo‘yicha qizg‘in tayyorgarlik ko‘rilyapti. Shu bilan birga, Tojikiston davlat universitetining o‘zbek tili fakultetiga borib, ijodiy uchrashuvlar tashkil etish bo‘yicha rejalarimiz ham nihoyasiga yetib qoldi.

Albatta, bunday keng ko‘lamli hamkorlik aloqalarini o‘rnatishda davlatimiz rahbarining ochiqlik siyosati muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zaro tajriba almashish, turli o‘lka ijodkorlarining asarlari bilan yaqindan tanishish yurtdoshlarimiz uchun yangi va salmoqli asarlar yaratishda kuchli turtki bo‘ladi. Birinchi navbatda, bu jarayon yosh ijodkorlar uchun juda foydali va o‘ziga xos katta tajriba maydoni bo‘lib xizmat qiladi. Prezidentimiz ko‘p bor “Siz axir osmonni olmoq bo‘lsangiz, Ne uchun yelkarni tutib bermayin!” deya ta’kidlaganidek, bugun chin ma‘noda o‘zbek yosh ijodkorlariga o‘z iste‘dodini namoyon etishi uchun ulkan imkoniyatlar va keng shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

Bugun O‘zbekistonning ko‘plab mamlakatlar bilan kuchli va do‘stona aloqalari mavjud. Bu xoh

Shuningdek, bu yil yurtimizda mahallalararo kitobxonlik tanlovlarini o‘tkazish rejalashtirilmoqda. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad, albatta, yoshlarning bo‘sh vaqtni mazmunli va samarali o‘tkazish hamda ma‘naviy tafakkurini yanada yuksaltirishdir. Hozir ko‘p yoshlar telefon va kompyuterlarga qattiq bog‘lanib qolgan. Yuqoridagi kabi qiziqarli va ommaviy tanlovlar esa ularni mutolaa qaytaradi. Chunki mutolaa, eng avvalo, insondagi go‘zal tuyg‘ularni tarbiyalaydi.

Shu maqsadda Yozuvchilar uyushmasi bugun qator kitoblarni o‘z homiyligida chop ettirmoqda. Har yili yubileyi munosabati bilan atqoli adiblarimizning saylanna va tanlangan asarlari, shuningdek, “Mard askarga sovg‘a”, “Nazm bo‘stoni”, “Nasr gulshini” kabi yirik turkumdagi asarlarni nashr etib kelmog‘damiz. Bu yil ham xalqimiz va yoshlarimiz uchun ko‘plab yangi asarlarni chop ettiramiz.

Shu bilan birga, ta’lim muassasalarida ijodiy uchrashuvlar o‘tkazmoqdami. Birgina o‘tgan yilning o‘zida mana shunday jonli uchrashuvlarda va turli ma‘naviy tadbirlarda 1 million 300 ming nusxadan ortiq kitob bepul tarqatildi. Joriy yilda ham ushbu xayrli ishlarni izchil davom ettiramiz. To‘g‘ri, bu raqamlar bir qaraganda juda ko‘pdek tuyulishi mumkin, ammo bugun 38 milliondan ortiq yurtdoshimiz borligini hisobga olsak, bu ko‘rsatkich hali kam ekanini seziladi. Shuning uchun keyingi yillarda hamkor tashkilotlar bilan birga kitobxonlik targ‘ibotini yanada faol va keng ko‘lamda olib boramiz. Oldimida adabiyotning shansi rivoji uchun qilishimiz kerak bo‘lgan muhim ishlr va katta marralar hali juda ko‘p.

— Sirojiddin aka, mazmunli suhbatningiz uchun sizga ko‘pdan ko‘p rahmat! Albatta, biz Yozuvchilar uyushmasi jamoasi bugun qanchalik shiddat, yuksak samaradorlik va faollik bilan ishlayotganini ko‘rib turibmiz. 2026-yilda ham uyushma jamoasiga ijodiy barkamollik va ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz. Yozuvchilar uyushmasiga butun yurtimiz ma‘naviyatining asl targ‘ibotchisi va uni yanada yuksaltiruvchi buyuk kuch bo‘lib xizmat qilishida zafarlar yor bo‘lsin!



CHIQINDI QARZDORLIGI UCHUN  
ELEKTR TO'LOVIGA CHEKLOVYANGI  
TIZIM  
O'ZINI  
OQLAYAPTIMI?

Xonadonimizda elektr toki o'chib qolsa, darrov mobil ilovaga kirib, to'lov qilishga odatlandik. Buning uchun birovga shikoyat qilmaymiz, chiroq yonishi uchun foydalangan xizmatimizga haq to'lashimiz zarurligini yaxshi bilamiz. Bu bozor iqtisodiyoti talablari, qolaversa, kommunal to'lovlar to'la raqamlashtirilgani mahsuli. Bunday zamonaviy to'lov tizimlari hammamiz uchun qulay. Shu bilan birga, xizmatga yarasha to'lov madaniyatini ham shakllantiradi.

Bu borada yangi va zamonaviy mexanizmlar ommalashtirilayotgani boisi shunda. Masalan, kuni kecha bir tanishim elektr energiyasidan uzilib qolgani, ammo har qancha urinmasin to'lov qila olmagan, sababi, bunga cheklov o'rnatilganini aytib qoldi. Keyin bilsa, chiqindi to'lovlardan qarzdorligi borligi boisi, elektr to'lovi cheklangan. Sal oldinroq bu haqida ogohlantiruv xabarini olganini ham esladi.

Hozir mamlakatimizda chiqindidan qarzi bor abonentlarning elektr energiyasi uchun to'lovlarga cheklov qo'yilayotganidan ko'pchilik xabardor. Dastlab bu tartib 2025-yilning 5-noyabridan Toshkent shahrida amaliyotga kiritilgan edi. Ma'lumotlarga ko'ra, jarayonning birinchi haftasidayoq qariyb 25,1 ming kishiga 2,24 milliard so'mlik qarzdorlik to'g'risida SMS xabarnoma yuborilgan. Shundan 6 ming abonentga 5 kunlik muddat tugaganidan so'ng elektr energiyasi to'lovlarga cheklov o'rnatilgan. O'tgan yilning dekabr oyidan esa yangi tizim butun O'zbekiston bo'yab ishlay boshladi.

U qarzdorliklarni avtomatik tarzda qayd etadi va bu ma'lumotlar har oyning 3-sanasisga qadar Chiqindilarni boshqarish agentligining "Toza makon" billing elektron tizimida shakllantiriladi. So'ng qarzdor abonentlar to'g'risidagi ma'lumotlar "Hududiy elektr tarmoqlari" AJning billing tizimiga uzatiladi. Aholining chiqindidan qarzdorligi mavjud bo'lganda, ko'pchilik tushunayotganidek, elektr tokidan uzilmaydi, balki unga to'lov qilishga cheklov o'rnatiladi. Biroq cheklov o'rnatishdan oldin qarzdorlar tegishli tartibda ogohlantiriladi. Qayd etilgan ro'yxat asosida abonentlarga har oyning 5-sanasisgacha "Hududiy elektr tarmoqlari" AJning 2100 qisqa raqami orqali qarzdorligi bo'yicha SMS xabarnoma yuboriladi. Shundan so'ng abonentga qarzdorlikni bartaraf etish uchun 5 kun qo'shimcha muddat beriladi.

Ayni tartib asosida qarzdor aholiga har oy boshida xabarnomalar yuborilib, belgilangan muddatda to'lovni qilmagan xonadonlarga elektr toki to'lovlari uchun cheklov o'rnatilmoqda. Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni

rivojlantirish agentligi kuni kecha fevral oyi bo'yicha ma'lumotlarni e'lon qildi. Unda ko'rsatilishicha, joriy yilning fevral oyi boshida yangi tizim orqali yurtimiz bo'yab 200 mingga yaqin abonentning elektr to'loviga vaqtincha cheklov o'rnatilgan. — Shu yilning 5-fevral kuni respublika bo'yicha chiqindi xizmatidan umumiy 108,9 milliard so'm debitor qarzdorlik uchun jami 1 million 174 ming 686 abonent "Hududiy elektr tarmoqlari" AJning 2100 qisqa raqamidan yuborilgan SMS xabarnoma orqali ogohlantirildi, — deydi Ekologiya vazirligi huzuridagi Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi bosh mutaxassisi Umidjon Kamolov. — Shundan so'ng abonentlarga mavjud qarzdorligini bartaraf etish uchun 5 kun muddat berildi. Bu davrda 12,7 milliard so'mlik to'lovlar amalga oshirildi. Yurtimiz bo'yab qoplanmay qolgan umumiy 15,8 milliard so'm maishiy chiqindi xizmat qarzdorligi uchun esa jami 198 ming 858 abonentning elektr energiyasi to'loviga cheklov o'rnatildi. Mazkur cheklollar qarzdorlik bartaraf etilishi bilan darhol yechiladi.

## Qarzdorliklar assosizmi?!

Bu yerda maqsad odamlarning elektr tokidan foydalanishida cheklavlarni oshirish emas, balki chiqindi to'lovlarning o'z vaqtida to'lanishini ta'minlashga qaratilgan. Bu nafaqat iqtisodiy, balki ekologik masala hamdir. Chunki ekologik xavfsizlik, avvalo, atrofimizni toza saqlashdan boshlanadi, chiqindilar esa ko'chalarni ifloslantiruvchi asosiy vositalardir. Bu haqida gap ketganida, bevosita hududlarni chiqindilardan tozalash muammosi o'rta qiqadi. Qolaversa, ularning tobora ortib borayotgani va chiqindilarni qayta ishlash muhim masalalardan biriga aylangani sir emas. Bu jarayonlar eng zamonaviy texnologiyalar hamda katta mablag' talab etadi. Chiqindi uchun to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish orqali bunga o'z hissamizni qo'shib boramiz.

Qolaversa, hozir to'lov qilish uchun kunlab ovora bo'lish, tegishli manzilni izlab saron yurishga hojat yo'q. Hamma narsa raqamlashib borayotgan, elektron to'lovlar ommalashgan davrda yashayamiz. Mobil ilovalar orqali buni osongina bajarish mumkin. Bir misol, 2026-yilning 1-yanvaridan boshlab mamlakatimizda chiqindi xizmatlari uchun to'lovlarni uyma-uy yurib undirish amaliyoti butkul to'xtatildi. Endilikda chiqindi xizmatlari uchun to'lovlar jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan faqat onlayn tarzda barcha elektron to'lov tizimlari orqali amalga oshiriladi. To'lovlar esa Sanitar tozalash korxonalar tomonidan hisoblanadi. Bunda ular aniqlik va haqoniylik uchun javobgar bo'lib, faqatgina ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovni hisoblashi nazarda tutilgan.

— Yangi to'lov tizimining afzalligi ham shunda, ko'rsatilgan xizmatga tarif asosida narx belgilanadi, — deydi Umidjon Kamolov. — Avvallari maxsus mashinalar mahallalardagi chiqindilarni olib chiqib ketsa ham yoki xizmat ko'rsatilmasa ham aholi jon boshiga to'lov hisoblanavergan. Shuning uchun ko'p odamlar ko'rsatilmagan xizmat uchun to'lov qilishdan norozi bo'lardi. Endi bu tartib o'zgarib, to'lov faqat xizmat ko'rsatish soniga qarab amalga

oshirilmogda. Buning uchun chiqindi tashish texnikasiga GPS kuzatuv tizimi o'rnatilgan va "Toza makon" dasturi orqali doimiy nazorat qilib boriladi. Hozirgi kunda yurtimizda maishiy chiqindilar bilan xizmati sohasida 50 ta sanitar tozalash korxonasi faoliyat yuritib kelmoqda. Ularning tasarrufida chiqindi tashuvchi 3510 ga yaqin mashina bor. Mazkur texnika vositalarining onlayn kuzatuv tizimiga ulanganlik darajasi 87 foizni tashkil qiladi. GPS qurilmasi mashinaning harakati, tezligi, vaqti, to'xtalishlar soni kabi ma'lumotlarni onlayn kuzatib turish imkonini beradi. Zamonaviy mexanizmining ushbu afzalliklari sanitar tozalash xizmati sifatini, mashinalar qatnovlari sonini oshirishga xizmat qilmoqda.

Yangi tizim yo'lga qo'yilib, odamlarning chiqindi to'lovlari bo'yicha majburiyati oshirilgach, aholining o'z ko'chasi, mahallasidagi sanitar tozalikka talabchanligi ham ortib bormoqda. Bu talabchanlik, bir tomondan, ekologik madaniyat oshayotgani, boshqa tomondan, qarzdorlik sabab elektr to'loviga qo'yilayotgan cheklollar bilan bog'liq.

Gap kuni kecha ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalib, odamlarning e'tiborini tortgan ayni mavzudagi xabar haqida bormoqda. Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi chiqindidan qarzdorlik tufayli elektr energiyasiga qo'yilayotgan cheklollar yuzasidan aholi tomonidan bildirilayotgan e'tirozlar oshib borayotganini ma'lum qildi. Aytishicha, qo'mita va uning hududiy organlariga 2025-yil davomida qattiq maishiy chiqindilarni tashish xizmatlari bo'yicha 1141 ta murojaat kelib tushgan bo'lsa, 2026-yilning dastlabki oylarida ushbu masala yuzasidan 850 dan ortiq murojaat qayd etilib, raqamlar sezilarli darajada yuqori ekanini kuzatilgan.

Murojaatlarda, asosan, chiqindilarning o'z vaqtida olib ketilmasligi, xizmatlar sifati pastligi, shartnoma shartlariga amal qilinmasligi, shuningdek, xizmat ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan assosiz qarzdorlik hisoblanishi hamda buning oqibatida fuqarolarning elektr energiyasi to'lovlarga cheklollar qo'yilgani yuzasidan e'tirozlar bildirilgan. O'rganishlar davomida

ayrim hududlarda chiqindilarni olib chiqib ketishning belgilangan minimal davriyligiga amal qilinmayotgani hamda fuqarolarga assosiz qarzdorliklar hisoblanayotgani aniqlangan. Shu boisi, qo'mita tomonidan assosiz qarzdorlik holatlari yuzasidan elektr ta'minotiga kiritilgan vaqtinchalik cheklavlarni qayta ko'rib chiqish bo'yicha Chiqindilarni boshqarish agentligiga so'rov yuborilgani aytiladi.

Bu holat qarzdorliklarni qayta ko'rib chiqishga asos bo'lishi mumkin, ammo ko'pchilik kutayotganidek, yangi tizim bekor qilinmaydi. Chunki bu tizim amaliyotga kiritilib, ishlay boshlaganidan beri chiqindi to'lovlari bo'yicha qarzdorliklar sezilarli kamaygan. Qolaversa, bu odamlarning to'lov madaniyatini oshirish, chiqindilar va atrof-muhitga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga xizmat qilaypti.

Mutasaddilarning ta'kidlashicha, yangi tizimda barcha jarayonlar shaffof ko'rsatiladi. Har bir yurtdoshimiz o'z mahallasidagi chiqindi tashish mashinalarining xizmat ko'rsatish soni, tartibi va shu yo'nalishdagi boshqa barcha ma'lumotlarni "Toza makon" yagona elektron billing tizimi orqali kuzatish imkoniga ega. Onlayn platformadan barcha abonentlar foydalanishi mumkin. Zamonaviy billing tizimi bir qancha davlat idoralari bilan identifikatsiya qilingan bo'lib, fuqarolar "ONE ID" tizimi va shaxsiy hisob raqami orqali maxsus ilovaga kirib, billing tizimidan o'ziga tegishli ma'lumotlarni ko'ra oladi.

## Nega aynan elektr energiyasi?!

Aslida, xizmatga yarasha to'lov ramoyilining mohiyati shunday, unda iste'molchi ham, xizmat ko'rsatuvchi ham birdek majburiyatlarga ega va har ikki tomon buni talab qilishga haqli. Erkin bozor iqtisodiyotidagi adolat va shaffoflik shu tarzda shakllanadi. To'g'ri, kamchiliklar yo'q emas, ammo umumiy olib qaraganda, yangi tizim avvalgisidan ko'ra qator afzalliklarga ega ekanini ko'zga tashlanmogda. Chiqindi tashish xizmatlarining raqamlashtirilishi, to'lov tizimlarining onlayn shaklga o'tkazilib, uyma-uy yurishdek eskicha amaliyotdan voz kechilgani, ko'rsatilgan xizmat uchun to'lov hisoblash kabilar, avvalo, odamlarning o'zi uchun qulay va inson manfaatlariga xizmat qiladi.

Bu tushunarli. Ammo chiqindi to'lovlari nega aynan elektr energiyasi bilan bog'lanayotgani aholini ko'proq o'ylantirib, haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda. Assosiy noqulayliklar ham aynan elektr to'lovlarga qo'yilayotgan cheklollar sabab yuzaga kelayotgani sir emas.

— Mazkur tajriba yurtimiz amaliyotida yangilik bo'lgani boisi, aholi orasida tushunmovchilik va noroziliklarni keltirib chiqarayotgani rost, — deydi Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi bosh mutaxassisi Umidjon Kamolov. — Buni jazolovchi chora sifatida baholab, maqsad faqat chiqindi to'lovlardan qarzdorliklarni bartaraf etishga qaratilgan deb baholayotganlar ham bor. Ammo assosiy maqsad zamonaviy to'lov tizimlarini joriy etish va xizmatlar sifatini oshirib borishdan iborat. Bunday tizim ko'plab davlatlarda ommalashgan va kommunal to'lovlarning zamonaviy hamda ta'sirchan shakllaridan biri sanaladi. Yurtimizda yangi tizim joriy etilishidan oldin xorij tajribasi o'rganildi. Masalan, ko'p mamlakatlarda chiqindi xizmatlarida aniq o'lchov birligining yo'qligi sabab to'lovlar fuqaroga soniga nisbatan hisoblanadi va abonentlar sifatida yuritiladi. Ayrim davlatlarda esa chiqindi to'lovlari yer solig'iga, ayrimlarida sud yoki tabiiy gaz to'lovlarga ulangan. O'rganishlardan so'ng O'zbekiston uchun eng maqbul yechim sifatida elektr energiyasiga integratsiya qilish tartibi tanlandi. Boisi, yurtimizning 96 foizdan ortiq hududi elektr energiyasi bilan qoplangan bo'lib, bu boshqa kommunal xizmatlar orasida eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi.

\*\*\*

Xalqaro amaliyotda yana bir tartib bor. Odamlar ekologik qoidabuzarliklar uchun yaxshigina jarima to'laydi. Dush kelgan joyga chiqindi tashlash faqatgina ekologik madaniyatsizlik emas, balki jiddiy qoidabuzarlik hamdir.

Ayni paytda yurtimizning barcha hududida jami 350 ta onlayn kuzatuv kamerasi o'rnatilgan bo'lib, ular turli ekologik qoidabuzarliklarni aniqlaydi, belgilanmagan joylarga chiqindi tashlash shular jumlasidan. Bunday tartibsizlik uchun esa tegishli choralar ham qo'llanilmoqda.

Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi ma'lumotlariga ko'ra, o'tgan yil davomida onlayn kuzatuv kameralari orqali yurtimiz bo'yab 10 ming 199 ta qoidabuzarlik aniqlangan. Shundan 2421 tasi bo'yicha ma'muriy javobgarlik qo'llanilib, jarima undirilgan. Qolgan 7778 ta qoidabuzarlik bo'yicha ham qonunchilikda belgilangan tartibda choralar ko'rilaypti.

**Iroda TOSHMATOVA,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



2026-yil-

Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili

Mahallalar mavqei va rolini oshirishda ijtimoiy muammolarni hal qilishning zamonaviy boshqaruv tizimi qo'llanayotgani katta ahamiyat kasb etmoqda. Yangi model mahalliy hokimiyat organlari bilan birga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idoralari faoliyatida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Uning asosida kengash raisligi lavozimining ta'sis etilishi va mustaqil vakolatlarining yuklanishi mahalliy boshqaruv organlarining aholi bilan mulqotini kengaytirishda muhim o'rinni tutmoqda.

So'nggi yillarda mahalla institutini isloh qilish va uni xalq hayotiga yaqin, samarali tizimga aylantirish bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirildi. Jumladan, "Ijtimoiy mahalla" tizimi doirasida mahallalardagi shart-sharoit, infratuzilma va obyektlar holati, qurilish va obodonlashtirish ishlarining borishi, ekologik vaziyat va boshqa masalalarni fuqarolar tomonidan virtual monitoring qilish amaliyoti joriy etilmoqda. Mazkur tizim orqali mahalladagi holatni o'rganish yuzasidan ijtimoiy so'rovlar o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

## YURT OBODLIGI KO'ZGUSI



Mahallalarning institutsional asoslarini takomillashtirish, tizim uchun yuqori malakali mutaxassislarni maqsadli tayyorlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmoqda. "Mahalla yettilligi" tizimi amaliyotga tatbiq etilgach, aholining muammolarini mahalla darajasida hal etish samaradorligi oshib, "yetitlik"ning kollegial qarorlari asosida hududning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli tobora yaxshilanib bormoqda. Shuningdek, mahallalarning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanyapti, infratuzilmasi takomillashtirilib, yangi, zamonaviy qiyofa kasb etmoqda.

Kredit, subsidiya, kompensatsiya, moddiy yordam ajratish kabi 100 dan ziyod xizmat mahalla darajasiga tushirilgani hisobiga 7,5 million fuqaro kambag'allikdan chiqdi, ishsizlik darajasi 2 barobar qisqardi. Shuningdek, 3500 mahalla qiyofasi zamonaviy ko'rinishga keldi. Mahallada ish o'rni ochish uchun bankir va soliqchilar birlashtirib berildi, infratuzilmaga ham alohida mablag' ajratilmoqda. Shu ma'noda, hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni mahallaning o'zida hal qiladigan xalqchil tizim yaratish borasidagi ishlar samara bermogda.

Haqiqatan, ko'pchilikning ijtimoiy muammolari mahallaning o'zida hal qilinishi mumkin. Buning uchun mahalla raislari mavjud imkoniyatdan to'g'ri va oqilona foydalanishi, yuqori idoralar bilan hamkorlikni to'g'ri tashkil qila olishi zarur. Ayniqsa, kambag'allikni qisqartirish, muhtojlarga ijtimoiy ta'minotni kuchaytirish, ishsizlarni kamaytirish, huquqbuzarlikning oldini olish masalalarida davlat organlari bilan hamkorlik o'ta muhim. Hozir murojaatlar faqat mahalla raislariga emas, balki "yetitlik" a'zolariga ham taqdim qilinmoqda. Bunday holatda mahalla raislari "yetitlik" a'zolarining murojaatlar bilan ishlashini muvofiqlashtirish, ijobiy tajribani ommalashtirish, "yetitlik" a'zolariga har tomonlama uslubiy yordam ko'rsatishi maqsadga muvofiq.

Prezidentimizning 2025-yil 3-yanvardagi "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barqavat oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori mahallalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan. Ushbu qarorga ko'ra, "mahalla yetitligi"ning mas'uliyati hamda o'zaro hamkorligi yangi bosqichga ko'tarildi. Endi har bir muammo xonadonbay o'rganilmoqda.

Xavfsizlik va osoyishtalik mahalladagi eng dolzarb ishlardan bo'lib, huquqni muhofaza qilish idoralarining mas'uliyati va javobgarligi oshirildi. Huquqbuzarliklarning oldini olish, "Xavfsiz mahalla" tizimini to'liq joriy etish ustuvor vazifa etib belgilandi. Prezidentimizning mazkur qarori ijrosini ta'minlash nafaqat mas'ul xodimlar, balki har bir mahalla ahlining burchidir.



**Akmal ISABOYEV,**  
Konstitutsiyaviy sudning konstitutsiyaviy qonunchilikni tahlil qilish bo'limi bosh konsultanti

Bugun mahallalar qiyofasi tubdan o'zgarimoqda. Aholi xalqparvarlikka asoslangan, uzoqni ko'zlab amalga oshirilayotgan islohotlarga qat'iy ishonch bildirish barobarida mahallalar obodligiga ham hissa qo'shmoqda.



O'zbekistonning turizm salohiyatini Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo-Tinch okeani, Yaqin Sharq, Xitoy va Markaziy Osiyo mintaqalarida keng targ'ib qilish maqsadida umumiy kuzatuv maydoni va auditoriyasi keng nashrlar, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va tashkilotlar bilan shartnomalar imzolangan. Xususan, umumiy auditoriyasi 600 millionlik "BBC World News", 1 milliard atrofida kuzatuvchiga ega "CNN" va 800 millionlik katta auditoriyaga ega "Euronews" mediakorporatsiyalari, shuningdek, "Ctrip.com" onlayn sayohat platformasi va "Visa Facilitation Services Global" tashkiloti kabilar yurtimiz imjini targ'ib etib kelmoqda.



Dunyodagi nufuzli xalqaro tashkilotlardan biri — TURKSOYda Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi nishonlandi. Ushbu xalqaro anjumanga yoʻl 9-fevral kuni Toshkentning Adiblar xiyobonidagi Alisher Navoiy haykali poyida boʻlib oʻtgan tantanali umummilliy va umuminsoniy tadbirdan boshlandi.



Nodir SUVONOV, “ADABIYOT” nashriyoti bosh direktori

Prezidentimiz tashabbusi bilan yangi Oʻzbekistonda sheʼriyat mulkining sultoni Alisher Navoiyning ibratli hayoti va ijodi yanada teran oʻrganilmoqda, targʻib etilmoqda, xorijiy tillarga tarjima qilinmoqda. Jumladan, bu yilgi ayyomda ulugʻ shoirning “Lison ut-tayr” asari italyan tiliga tarjima qilinib, nashr etilgani jahon navoiyshunosligi va badiiy tarjima tarixida ulkan voqea boʻldi. Italiyalik hamkasbim “Sandro Teti Editor” nashriyoti rahbari Sandro Teti janoblari Rimdan keltirgan — Sharq miniatyurasi durdonalari bilan bezatilgan, jahon matbaachilik sanʼati tamoyillari asosida chop etilgan muttasham kitobni varaqlab koʻrarkanman, faxrlandim.

Qirgʻizistonning yurtimizdagi favqulodda va muxtor elchisi Duyshunqul Chotonovning qoʻshni davlatda Alisher Navoiy haykali oʻrnatilgani va soʻlim bogʻ barpo etilgani hamda bu xiyobon obod manzilga aylantirilgani haqidagi dil izhorlarini tinglar ekanman, bobomiz qoldirgan nazmiy chamanlardan butun dunyo bahramand boʻlib kelayotganini oʻylab, koʻnglimdagi iftixor ikki karra oshdi.

Turkiyaning Anqara shahrida, nafaqat Oʻzbekistonning, balki barcha turkiy tili xalqlarning, turkiy tili davlatlar adabiyotining qutlugʻ sanasiga bagʻishlab oʻtkazilgan tadbirlar Alisher Navoiy hazratlarining qariyb olti asrdan buyon davom etib kelayotgan yana bir jahonshumul zafarli yurishi boʻldi.

Nihoyat 12-fevral kuni ana shunday koʻtarinki taassurotlar ogʻushida Oʻzbekiston Respublikasi delegatsiyasi tarkibida bir guruh shoirlar va

Mutaxassislarning taʼkidlashicha, inson miyasi maʼlumotni elektron doska yoki monitorlarga qaraganda, qogʻoz vositalari, xususan, gazeta, jurnal va kitoblardan koʻqiganda koʻproq qalamda samaraliroq qabul qiladi. Qolaversa, har qanday matbuot nashri tarixning bir boʻlagiga aylanadi. Yillar oʻtib, kelajak avlod muayyan davr haqida maʼlumot olmoqchi boʻlsa, shubhasiz, oʻsha paytda chop etilgan gazetalarga murojaat qiladi va shu orqali zamon nafasi hamda haroratini his etadi.



“Yangi Oʻzbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS: Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

TURKSOYning Anqara shahridagi bosh qarorgohida “Alisher Navoiy — turkiy adabiyotning buyuk namoyandasi” mavzusida anjuman oʻtkazildi. Tashkilot bosh kotibi Sulton Rayev ushbu xalqaro tadbir ochilishida Navoiy shaxsini turkiy dunyoning umumiy vijdoni va tamadduniy timsoli sifatida eʼtirof etdi.



Taassurot



# JAHONSHUMUL EHTIROM

olimlar bilan Toshkent aeroportidan Anqara shahriga uchdik. Turkiyada Alisher Navoiy tavalludining

adabiyotning buyuk namoyandasi” mavzusida anjuman oʻtkazildi. Tashkilot bosh kotibi Sulton Rayev ushbu xalqaro tadbir ochilishida Navoiy



585-yilligiga bagʻishlangan tadbirlar avvalida Anqara shahri Kechioʻren tumanida qad rostlagan Alisher Navoiy haykali poyiga gul qoʻyildi. Bobomiz siymosi butun salobatiyu donishmandligi, arbobligiyu shoirligi bilan ifodalangan mazkur yodgorlik Oʻzbekiston Respublikasi mustaqilligining oʻtiz uch yilligi munosabati bilan ochilgan. Gul qoʻyish marosimida TURKSOY bosh kotibi Sulton Rayev, Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid, Kechioʻren tumani rahbariyati, turkiy mamlakatlardan kelgan tanikli adiblar, olimlar va adabiyot ixlosmandlari ishtirok etdi.

TURKSOYning Anqara shahridagi bosh qarorgohida “Alisher Navoiy — turkiy

shaxsini turkiy dunyoning umumiy vijdoni va tamadduniy timsoli sifatida eʼtirof etdi. Shuningdek, Oʻzbekistonda ajdodlar merosiga koʻrsatilayotgan eʼtibor yuqori darajada ekanini taʼkidladi. Xususan, Prezidentimizning adabiyot va madaniyatni koʻllab-quvvatlash, Alisher Navoiy merosini yosh avlodga yetkazish borasidagi saʼy-harakatlari haqida havas bilan gapirdi.

Tadbir doirasida oʻtkazilgan nafis majlislarda Alisher Navoiy asarlarining Oʻzbekistonda va xalqaro miqyosda oʻrganilishi, qoʻlyozmalarni ilmiy tadqiq etish, nashr va tarjima qilish ishlari haqida maʼlumot berildi. Bu ulugʻ adabiy merosni zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida oʻrganish

hamda yosh avlod ongiga singdirish masalalariga alohida eʼtibor qaratildi. Shuningdek, Alisher Navoiy merosining umumbashariy ahamiyati haqida ham soʻz borib, shoir nafaqat turkiy xalqlarning, balki butun insoniyatning maʼnaviy dahosi ekani taʼkidlandi. Navoiy asarlarining bugungi talqini, maʼnaviy-maʼrifiy ahamiyati va adabiy tafakkur taraqqiyotidagi oʻrni haqida ham salmoqli fikrlar bildirildi.

Bugun jahon adabiyotshunosligi va adabiy muhiti turkiy dunyoning mumtoz adabiyoti, xususan, Alisher Navoiy asarlarini oʻrganishga faol yondashayotir. Jumladan, “Xamsa” ozarbayjon tiliga toʻliq tarjima qilinib, Bokuda nashr etildi. “Mabhub ul-qulub” risolasi ozarbayjon, qozoq, qoraqalpogʻ tillariga oʻgʻirildi. Shu tariqa dunyo boʻylab buyuk shoir hayoti va ijodiga bagʻishlangan ilmiy va badiiy asarlar chop etib kelinmoqda. Oʻzbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning “Xamsa hayratlari” doston-manzumasi, Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani kabi yangi asarlarda bobomiz siymosi, oʻsha tarixiy davr tasvirlangani, ayni paytda zamonamizdagi islohotlar ifodalangani bilan muhim.

Anjumanda Qozogʻistonning Turkiyadagi favqulodda va muxtor elchisi Yerkebulan Sapiev, Turkmanistonning Turkiyadagi favqulodda va muxtor elchisi Mekan Ishanguliyev, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti rektori, akademik Shuhrat Sirojiddinov, Anqara ijtimoiy fanlar universiteti rektori, Turkiya Yozuvchilar uyushmasi raisi Muso Kozim Arjon, TURKSOY Yozuvchilar uyushmasi raisi Ulugʻbek Eshdaviat, Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi oʻrinbosari Gʻayrat Majid, Oʻzbekiston xalq shoiri Usmon Azim, shuningdek, Oʻzbekiston, Ozarbayjon, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Turkiya,



Turkmanistondan navoiyshunos olimlar, taniqli shoir va yozuvchilar, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari qatnashdi.

Tadbir yakunida Oʻzbekiston xalq shoiri Usmon Azim, akademik Shuhrat Sirojiddinov turkiy dunyoning madaniyati va adabiyoti rivojiga munosib hissa qoʻshgani uchun Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti — TURKSOYning oltin medali bilan taqdirlandi. Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid, filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborov TURKSOY medali bilan mukofotlandi.

Turkiya Yozuvchilar uyushmasida Alisher Navoiy ijodiga bagʻishlangan davra suhbat boʻlib oʻtdi. Anqara ijtimoiy fanlar universitetida esa “Alisher Navoiy va turkiy dunyo” mavzusida ilmiy anjuman oʻtkazildi. Tadbirni

turli tillarda nashr etilayotgan kitoblar, kitob koʻrgazmalari, kutubxonalar faoliyati qiziqtiradi. Shu bois, Turkiyadagi mashhur “Xalq kutubxonasi”ga kirganimizda koʻzim yashnab ketdi. Bunday kitob saroyida boʻlish, nihoyatda koʻplab nusxadagi kitoblar oldida abadiyatni his etib turishning gashati oʻzgacha. Bu kutubxonadan Alisher Navoiy bobomizning ham kitoblari oʻrin egallagan. Delegatsiyamiz rahbari Sirojiddin Sayyid kutubxona mutasaddilariga Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan Turkiya “Xalq kutubxonasi”ga kitoblar hadya qilishga vaʼda berdi.

Ijodiy safar davomida Turkiyaning Koʻniyo shahriga sayohat qilib, Jaloliddin Rumiy qabrini ziyorat qilganimiz koʻnglimizni gʻoyat yorishtirdi.

## KITOB ORQALI QALBLARGA YOʻL OCHILADI



Kamolot kaliti



“Kitob — insonning doʻsti” iborasini juda koʻp ishlatamiz. Zero, kitob insonga hech qanday taʼma va minnatsiz maslahat beradi. Shu bois, ming yillardan buyon kitob odamlar qoʻlidan tushmay, qadrlanib va eʼzozlanib kelmogʻda.

Axborot eng qimmat resurslardan biriga aylanayotgan bugungi raqamli davrda ham anʼanaviy kutubxonalar oʻz ahamiyatini yoʻqotgani yoʻq. Biroq zamonaviy sharoitda axborotdan foydalanish tezligi va qulayligiga boʻlgan talab oshib borayotgani sababli anʼanaviy kutubxonalar faoliyatini virtual xizmatlar bilan toʻldirish zarurati yuzaga kelmogʻda.

Keling, bu borada koʻp yillik tajribaga ega mutaxassis — Ellikqalʼa tumani axborot-kutubxona markazi direktori Maqsuda Jumanoyevonaning fikrlari bilan tanishsak:

— Virtual kutubxonalar nima uchun kerak? Ular axborotga teng va tezkor kirish muammosini hal qiladi. Talaba, tadqiqotchi yoki kitobxon oʻziga kerakli manbani izlab kutubxonaga borishga majbur boʻlmaydi, balki bir necha soniya ichida elektron resursdan foydalanishi mumkin boʻladi. Masalan, ilmiy ish yozayotgan talaba xorijiy jurnal maqolasini tunda, uyidan chiqmagan holda yuklab olish imkoniyatiga ega. Raqamli kataloglar kitoblar, ilmiy maqolalar, jumalari va dissertatsiyalarni muallif, mavzu yoki kalit soʻzlar asosida tezda topish imkonini beradi.

Google Scholar va Milliy kutubxonaning elektron kataloglari bunga yaqqol misol boʻla oladi. Virtual kutubxonalarda minglab elektron kitoblar va ilmiy jurnallar jamlangan. SpringerLink va ScienceDirect platformalari millionlab ilmiy maqolalarni onlayn tarzda taqdim etadi. Shuningdek, Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan EBSCO va ProQuest bazalari foydalanuvchilarga bepul taqdim etilgan boʻlib, ular orqali ilmiy va akademik resurslardan erkin foydalanish mumkin. Zamonaviy virtual kutubxonalar audiokitoblar, videomaʼruzalar va interaktiv darslarni ham oʻz ichiga oladi. Coursera va Khan Academy platformalaridagi videodarslar mavzularni tushunishni osonlashtiradi. Bundan tashqari,

virtual kutubxonalar masofaviy maslahatlar, webinarlar va onlayn treninglar orqali foydalanuvchilar bilan faol mulotoqni yoʻlga qoʻymoqda. Shu bilan birga, respublika axborot-kutubxona markazlari orqali ham elektron resurslarga masofadan turib kirish va foydalanish imkoniyati mavjud.

Ha, virtual kutubxonalar taʼlim jarayonida muhim rol oʻynaydi. Shuningdek, sunʼiy intellekt va katta maʼlumotlar (Big Data) texnologiyalari virtual kutubxonalarni yanada rivojlantirishga imkon bermogʻda. Aqlli qidiruv tizimlari, shaxsiy tavsiyalar va individual oʻquv yoʻnalishlari foydalanuvchiga moslashtirilgan xizmatlarni taqdim etadi. Virtual

kutubxonalar nafaqat axborot manbai, balki ilmiy va madaniy mulokat markaziga aylanishi kutilmoqda.

Virtual kutubxonalar zamonaviy ilmiy axborot muhitida bilim olish, tadqiqotlar olib borish va taʼlim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular anʼanaviy kutubxonalarni inkor etmaydi, aksincha, faoliyatini raqamli texnologiyalar orqali toʻldiradi va kengaytiradi. Talabgorlar uchun axborotdan foydalanish imkoniyatlari qulay, tezkor va samarali shaklga ega boʻlib, bu ilmiy ishlarning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Oʻzbekiston tajribasida Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxonaning dissertatsiyalar elektron bazasi tadqiqotchilar uchun katta imkoniyat yaratmoqda. ProQuest bazalari bepul boʻlib, foydalanuvchilar resurslardan masofadan turib foydalanishi mumkin. Kelajakda virtual kutubxonalar taʼlim va ilm-fan sohasida barqaror rivojlanishni taʼminlovchi muhim axborot infratuzilmasiga aylanishi kutilmoqda.

Globallashuv davrida aholi, ayniqsa, yoshlar oʻrtasida kitobxonlik madaniyatini oshirish, ularni sifatli axborot bilan taʼminlash dolzarb vazifa sanaladi. Amudaryo tumani axborot-kutubxona markazida ham bu yoʻnalishda salmoqli ishlr qilinmoqda. Bugungi kunda Amudaryo tumani axborot-kutubxona markazi 6 mingdan ortiq foydalanuvchiga ega. Quvonarlisi, oʻtgan yilning oʻzida kutubxonaga 1412 yangi kitobxon aʼzo boʻlgan. Shuningdek, chekka hududlar aholisini kitob bilan taʼminlash maqsadida koʻchma kutubxona xizmati

yoʻlga qoʻyilib, aholi maʼrifat karvoni xizmatidan foydalanmoqda.

— Kutubxona fondini zamon talablariga mos ravishda toʻldirish va saqlash muhim vazifa, — deydi tuman axborot-kutubxona markazi direktori Dilmurod Oʻrazaqov. — Hozirgi kunda axborot-kutubxona markazi fondi 19 ming 699 nomdagi 65 ming 248 nusxa adabiyotdan iborat. 2025-yil davomida fondga 95 nomdagi 280 nusxa kitob sotib olingan boʻlsa, homiylar va kitobsevarlar tomonidan 118 nomdagi 418 nusxa kitob sovgʻa qilindi. Zamonaviy kutubxonani axborot texnologiyalarisiz tasavvur etib boʻlmaydi. Markazimizning raqamlashtirish xizmati tomonidan “Unicat” dasturiga 4752 dona asosiy va 462 dona vaqtinchalik bibliografik yozuv kiritilgan. Shuningdek, markazning ijtimoiy tarmoqlardagi kanallariga audiokitoblar joylashtirilgan.

Markaz joriy yilda ham bu boradagi ishlarni davom ettirib, kitobxonlar safini yanada kengaytirish, targʻibot ishlarini kuchaytirish hamda aholi, ayniqsa, yoshlarni kitobxonlikka qiziqiruvchi turli tadbirlar uyushtirishni maqsad qilgan.

Yangi Oʻzbekiston taraqqiyotida maʼnaviyatga eʼtibor har qachongidan ham ortmoqda. “Kitobxonlar yurti” gʻoyasi xalqimizni ilimga, mutolaaga va kitobsevarlikka yetaklovchi muhim tamoyilga aylandi. Kitobga qiziqish qayta jonlanmoqda. Choʻlpon aytganidek: “Insonga eng kerak narsa — bu adabiyot, adabiyot, adabiyotdir!”.

Biz esa maʼnaviyatimizda boʻshliq yuzaga kelmasligi hamda istiqbolli kelajak qurish uchun har bir xonadonda, uyimizning bir burchagida kitob javonini tashkil etmogʻimiz ayni muddao.

Minajatin QUTLIMURATOV, “Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan roʻyxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** G-246. 30829 nusxada bosildi.

**Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qogʻoz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon koʻchasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Munajat Moʻminova Musahhih: Sherzod Mahmudov Dizayner: Zafar Roʻziyev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrizabz koʻchasi, 85-uy

Oʻza yakuni — 20:50